

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN CHIQARUVCHI HOKIMIYATINING SHAKLLANISH TARTIBI VA HUQUQIY ASOSLARI

Ibroximova Madina Qaxramonovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari o'rtasidagi vakolatlar taqsimlanishining konstitutsiyaviy-huquqiy tahlillarini hamda o'zaro ichki va tashqi muvozanat mexanizmlarining nazariy asoslarini ko'rsatib beradi. Shuningdek, mamlakatimiz miqyosida ushbu sohadagi mavjud muammolarga taklif va yechimlar ishlab chiqishdan iborat.*

Annotation: *"This thesis provides a constitutional and legal analysis of the distribution of powers between the chambers of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, as well as the theoretical foundations of internal and external checks and balances. Furthermore, it aims to develop practical proposals and solutions to existing issues within this field at the national level."*

Аннотация: *Данный тезис раскрывает конституционно-правовой анализ распределения полномочий между палатами Олий Мажлиса Республики Узбекистан, а также теоретические основы внутренних и внешних механизмов взаимного сдерживания и баланса. Кроме того, работа направлена на разработку предложений и решений существующих проблем в данной сфере в масштабах нашей страны.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, davlat hokimiyati tizimida muhim islohotlar amalga oshirilib, ulardan biri davlat va jamiyat hayoti uchun muhim bo'lgan institutlarning tashkil etilishi hisoblanadi. Dastavval bir qancha sohalarda kadrlar masalasi bo'yicha ma'lum muammolarga duch kelindi, ammo turli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda qonun chiqaruvchi hokimiyatning o'rni katta bo'lganligi sababli Oliy Majlis tashkil etildi. Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi olimlar tomonidan umum e'tirof etilgan 4 ta asosiy davrlarga bo'linadi:

- birinchi davr: 1991-1994-yillar;
- ikkinchi davr: 1995-2004-yillar;
- uchinchi davr: 2005-2016-yillar;
- to'rtinchi davr: 2016- hozirga qadar.

Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, parlament tuzilishi ikki turga bo'linadi: unikameral (bir palatali) va bikameral (ikki palatali). Bugungi kunga kelib Parlamentlararo Ittifoq (IPU) ma'lumotlariga ko'ra, jahon maydonida 107 davlat bir palatali hisoblanib, 82 davlatda esa bikameralizm xususiyatlari mavjud. Ular bir qancha belgilariga ko'ra ajratilishi belgilangan:

Federativ davlatlar: AQSH, Germaniya, Rossiya, Braziliya, Hindiston va Avstraliya kabi federativ tuzilishga ega deyarli barcha davlatlarda ikki palatali tizim amal qiladi. Bu hududiy manfaatlar va umummilliy manfaatlarni muvozanatlash uchun xizmat qiladi.

Unitar davlatlar: O'zbekiston, Fransiya, Buyuk Britaniya va Italiya kabi unitar davlatlarda ham ikki palatali parlament mavjud. Masalan, O'zbekistonda 2004-2005-yillardan boshlab parlament ikki palatali (Qonunchilik palatasi va Senat) shaklga o'tgan.

Aholi va hudud: Yuqoridagi matnda ta'kidlanganidek, aholisi ko'p (30 milliondan ortiq) va hududi keng davlatlarning aksariyati aynan shu tizimni tanlagan.

Xulosa qilib aytganda, dunyo mamlakatlarining taxminan 43% qismi bikameral tizimdan foydalanadi, ammo bu davlatlarda dunyo aholisining yarmidan ko'pi (taxminan 4 milliard kishi) istiqomat qiladi.

Tarixga nazar tashlasak, parlament faqatgina 2 shaklli emas, balki boshqacha ko'rinishlarda mavjud bo'lganini ko'rishimiz mumkin. O'tmishdagi haqiqiy modellar — bu yaqin yoki uzoqroq o'tmishda bekor qilinganligi sababli yo'qolib ketgan tizimlardir. Ularning aksariyatini umumiy qilib "ko'p palatalilik" (multikameralizm) deb atash mumkin, chunki ular ikkitadan ortiq palataga ega bo'lgan. Ko'p palatali parlamentlarning ikki asosiy turini ajratish mumkin: uch palatali va to'rt palatali tizimlar, ular mos ravishda "trikameralizm" (uch palatalilik) va "tetrakameralizm" (to'rt palatalilik) deb ataladi.

Yana bir model yaqin o'tmishda yo'qolib ketdi, bu parlamentning o'zgaruvchan tuzilishi bilan tavsiflanadigan "shartli bir palatalilik" (qualified unicameralism) deb atalgan tizimdir. Tarixdagi eng mashhur trikameralizm namunasi, shubhasiz, Fransiya Ancien Régime (Eski tartib) davriga xos bo'lgan tizimdir. Unda Bosh shtatlar (States-General) uchta assambleyaga bo'lingan bo'lib, birinchisi ruhoniylarni, ikkinchisi zodagonlarni, uchinchisi esa oddiy xalq vakillarini ifodalagan (Krynen 1987: 30-44).

Fransiya inqilobidan keyin qonun chiqaruvchi organning uch palatali tuzilmasi Fransiya Konsulligi (1799–1804) davrida va Birinchi imperiyaning boshida (1804–1807) qayta joriy etilgan. "Oqsoqollar kengashi"ning vorisi (yuqori palata ekvivalenti) bo'lgan Corps législatif (Qonun chiqaruvchi korpus) va "Besh yuzlar kengashi"ning vorisi (quyi palata ekvivalenti) bo'lgan Tribunat bilan bir qatorda, Sénat conservateur (Konservativ Senat) tashkil etilgan. Ushbu Senat konstitutsiyani qonunchilik hujjatlaridan himoya qilish vakolatiga ega edi.

Tizim oxir-oqibat, 1807-yilda Tribunat bekor qilingach, ikki palatali tizimga aylandi. Bu imperator qo'lida hokimiyatni yanada ko'proq markazlashtirish maqsadida amalga oshirilgan edi. Natijada imperator qolgan palatalarni o'z hukmronligi ostiga bo'ysundirishga va katta qarshi kuchlarsiz o'z qonun ijodkorligi vakolatini amalga oshirishga erishdi.

Mamlakatimiz tarixiga qaytsak, 1991-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, milliy parlament tizimi shakllana boshladi. 1992-yilda O'zbekiston

Respublikasi Oliy Kengashi faoliyat yuritdi. 1995-yildan boshlab yangi parlament – unikameral xarakterdagi Oliy Majlis tashkil etildi.

Bu davrda parlament qonunchilikni shakllantirishda muhim rol o'ynadi, ammo tizim hali rivojlanish bosqichida edi. 2005-yildan boshlab O'zbekistonda ikki palatali parlament tizimi joriy etildi: Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata).

Bu islohotlar parlament faoliyatini yanada demokratlashtirish, hududiy manfaatlarni hisobga olish va qonunlar sifatini oshirish maqsadida amalga oshirildi. Qonunchilik palatasi deputatlari to'g'ridan-to'g'ri saylanadi. Senat a'zolari esa hududiy vakillik asosida shakllantiriladi.

So'nggi yillarda parlament faoliyatida sifat jihatidan yangi o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, qonun ijodkorligi jarayonida ochiqlik va shaffoflik oshdi, parlament nazoratining samarali mexanizmlari joriy etildi. Deputatlar va senatorlarning ijro hokimiyati ustidan nazorat funksiyalari kengaytirildi. Shuningdek, siyosiy partiyalar o'rtasidagi raqobat va muhokama madaniyati rivojlanib bormoqda. Bu esa parlamentni haqiqiy demokratik institutga aylantirish yo'lidagi muhim qadamdir.

O'zbekistonda Respublikasi Oliy Majlisi quyidagi normativ-huquqiy asoslarga ko'ra shakllanadi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 92-modda: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan (senatorlardan) iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — to'rt kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'qqiz nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputati bir vaqtning o'zida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, viloyatlar,

tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.

2. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonun - Qonunchilik palatasi (quyi palata) ko'ppartiyaviylik asosida umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadigan bir yuz ellik nafar deputatdan iborat.

Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi.

Qonunchilik palatasini shakllantirish tartibi Saylov kodeksiga asosan amalga oshiriladi.

3. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Qonun - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (yuqori palatasi) hududiy vakillik palatasidir.

Senat a'zolari (senatorlar) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — to'rt kishidan saylanadi.

Senatning to'qqiz nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Senat ishi yalpi majlislarga (bundan buyon matnda majlislar deb yuritiladi) va uning qo'mitalari majlislariga to'planadigan senatorlar faoliyatiga asoslanadi.

Senatda hududiy mansublikka ko'ra hamda siyosiy yoki boshqa asosda guruhlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Oliy Majlis Senatini shakllantirish tartibi Saylov kodeksiga asosan amalga oshiriladi.

4. Saylov Kodeksi - 13-14- boblar quyi palata va senatning shakllanishi tartibi va o'ziga xos xususiyatlari haqida bo'lib, unga ko'ra Qonunchilik palatasi besh yil muddatga saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat bo'ladi.

Qonunchilik palatasi deputatlarining: yetmish besh nafari bir mandatli saylov okruglari bo'yicha saylanadi; yetmish besh nafari yagona saylov okrugi bo'yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga mutanosib ravishda partiya ro'yxati asosida saylanadi. Senat hududiy vakillik palatasi hisoblanadi.

Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — to'rt kishidan saylanadi. Senatga saylov Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, mahalliy Kengashlar deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

Senatning to'qqiz nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega

bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Senatning vakolat muddati — besh yil.

5. "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi 350-II-sonli Qonun - mazkur qonun hujjati "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq holda 2002-yil 27-yanvar kuni o'tkazilgan hamda ikki palatali parlament tuzish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini o'zgartirish to'g'risidagi ikki muhim masala bo'yicha qaror qabul qilgan, shuningdek, demokratik va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish yo'lini tasdiqlagan umumxalq ovoz berishi natijalaridan kelib chiqadigan asosiy yangi qoidalarni va amaldagi qonunchilikka kiritiladigan o'zgartishlarni belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrir
2. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi
3. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi reglamenti to'g'risida"gi qonun
4. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati reglamenti to'g'risida"gi qonun
5. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik- TDYU nashriyoti.: Toshkent - 2024.- 800b
6. R. Hakimov, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi. O'quv qo'llanma.- Toshkent: TDYU, 2020.- 96 b